

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI BO'LIMLARARO
INTEGRATSIYALASH

Jo'rayeva Ma'mura Ramazonovna
ilmiy rahbar: Rajabova Nodirabegim Komilovna

Yurtimiz kelajagi bugungi avlodning qanday ta'lim olayotganiga, bo'lajak yetuk kadrlarga berilayotgan bilimlar qanday samarali usullar bilan yetkazilayotganiga bog'liq. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Bugungi dunyo yoshlari - son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlodir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liqdir". Shunday ekan, kelajak egalariga berilayotgan bilimlarning mukammal, puxta, izchil hamda o'quvchining yoshiga mos bo'lishiga ahamiyat qaratish lozim. Bu esa bir o'quv yili davomida berilgan bilimlar keyingi o'quv yili davomida yangi bilimlar bilan boyitilgan holda o'tilishini, natijada o'quvchi uchun ma'lum bir bilim izchilikda va bo'limlararo integratsiyalashgan holda o'zlashtirilishini taqozo etadi. Integratsiya (lotincha "integration"-tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish) -ayrim tushuncha va bilimlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha bo'lib, 2021-2022- o'quv yilidan boshlab joriy etilgan ona tili va o'qish savodxonligi darsligi ham xuddi shunday tamoyilga asoslanadi. Yangi darslikning birinchi sinf doirasidagi mavzulari, bo'limlari va hattoki sinflar kesimidagi bo'limlari ham integratsiyalashgan bo'lib, bularning barchasi o'quvchilarning fan doirasidagi bilimlarini shakllantirishga, fikrlash qobiliyatini kengaytirishga hamda og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan. 1- sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida quyidagi bo'limlar:²⁰

1. Men, sen, u va ular
 2. Tabiat ne'matlari
 3. Sog' tanda - sog'lom aql
 4. San'at va madaniyat
 5. Til va dil
 6. "Fan va texnologiyalar" mavjud bo'lib;
- 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi bo'limlar:
1. O'zbekiston - mening vatanim
 2. Men, sen, u va ular
 3. Tabiat ne'matlari
 4. Sog' tanda - sog'lom aql
 5. Kasbim - faxrim
 6. Yosh iqtisodchi
 7. Fan va texnologiyalar
 8. Til va dil

²⁰ Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang'ich maktab» jurnali Toshkent. 2000- yil. 212 b.

9. Tarix xazinalari

10. San'at va madaniyat

11. Huquqimiz – haqimiz” tarkibida ularning barchasini kuzatish mumkin. Birgina “Men, sen, u va ular” bo‘limiga e’tibor qaratilsa, birinchi sinfdagi bu bo‘lim orqali o‘quvchilarga oila a’zolari, yaqinlari, kun tartibi va bayram kunlari haqida ma’lumot va topshiriqlar berilgan bo‘lib, ikkinchi sinfdagi bu bo‘limda yuqorida berilgan mavzular atroflicha kengaytirilib, o‘quvchilar bilimiga maktab, mahalla kabi tushunchalar asosida ot yasovchi “- dosh” qo‘shimchasi kiritiladi. O‘quvchilar shu kunga qadar o‘z nutqida qo‘llab kelayotgan sinfdosh, partadosh, mahalladosh kabi so‘zlar sinf, parta, mahalla so‘zlariga “- dosh” qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lganini bilib olishadi. “Tabiat ne’matlari” bo‘limi ham ikkala sinf doirasida uchrab, birinchi sinfdagi tabiat hodisalari, mo‘jizaviy hasharot, ya’ni asarlari, uy hayvonlari haqida ma’lumot berish bilan birgalikda hayvonlarga qo‘yilgan nomlarni bosh harf bilan yozish ko‘nikmasi hosil qilinadi. Ikkinchi sinfdagi bu bilimlar kengaytirilib, qishda uxlaydigan hayvonlar, yer osti qazilmalari, sayohat qiladigan qushlar haqida ma’lumot berilib, “Yer ostida nima bor?” mavzusida o‘quvchilarga narsalarning nomini bildiruvchi so‘zlar nima? yoki nimalar? so‘rog‘iga javob berishi o‘rgatiladi. Ikkala sinf doirasida uchraydigan yana bir bo‘lim “Sog‘ tanda - sog‘lom aql” bo‘limi bo‘lib, bu bo‘lim ham ma’noviy jihatdan integratsiyalashgan. Birinchi sinfdagi o‘quvchilarga foydali sabzavotlar haqida ma’lumot berish jarayonida jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarda so‘z oxiridagi jarangli undosh ba’zan jarangsiz jufti kabi talaffuz qilinishi, “qishloq”, “o‘rtoq”, “o‘roq”, “qovoq”, “tuproq” so‘zlariga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda “q” tovushi “g” yozilishi, paronim so‘zlarning ayrimlari, “Xotiram kuchli bo‘lsin desangiz” mavzusida esa, ikki narsani o‘zaro qiyoslaganda so‘zga,,-roq ” qo‘shimchasi qo‘shilishi “-li” va “-siz” qo‘shimchasi qo‘shilganda biror- bir predmetning bor yoki yo‘qligini anglatishi elementar tarzda tushuntirib o‘tiladi. Ikkinchi sinfdagi shu mazmun davom ettirilib, sog‘lom bo‘lish uchun mikroob va bakteriyalardan saqlanish kerakligi, foydali nonushta, inson tana a’zolari haqida ma’lumot berilib, mavzu davomida “va”, “ammo”, “shuning uchun” bog‘lovchilari va ayrim iboralarni qo‘llash amaliy o‘rgatiladi. Bu kabi integratsiyalashgan bo‘limlar darslikda ko‘plab uchrab, biri ikkinchisining mazmunini to‘ldirishga, boyitishga xizmat qiladi. Darslikdagi har bir bo‘lim o‘ziga xos tilshunoslikka oid bilimlarni berishga mo‘ljallangan bo‘lib, birinchi sinfning birinchi bo‘limi – “Men, sen, u va ular bo‘limi” da o‘quvchilar matn tarkibidan qarindoshlikni bildirgan so‘zlar va kishilarning ismlarini ajrata olishni va ularning imlosini, topshiriqlarni bajarish jarayonida savollarga tartibli javob berishni, vaqtni ifodalovchi so‘zlar va ularning imlosini, raqamlar orqali berilgan sonlarni harflar orqali ifodalashni, so‘zlar orasida vergulning qo‘llanishi bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar ustida ishlashni, bayram nomlarining birinchi so‘zi bosh harf bilan yozilishini, yaqin qarindoshlarni bayram bilan tabriklash uchun tabriknoma yozishni, matnni mantiqiy qismlarga bo‘la olishni, matn uchun reja tuzishni o‘rganadilar. Ikkinchi sinf darsligining aynan shu bo‘limida o‘quvchilarda berilgan matn tarkibidan ma’nolari yaqin bo‘lgan so‘zlarni ajratish, matn tarkibidan ma’nolari yaqin bo‘lgan so‘zlarni ajratish, matn tarkibidan maktab hayoti bilan

bog'liq bo'lgan narsa nomlariga so'roq berish orqali ularni ajratish, ularning umumiy nomini aniqlash, "-dosh" qo'shimchasi orqali yangi so'z yasash, tabriknoma yozish, shu bilan birgalikda tabriknoma matnida tabriklanayotgan kishi ismidan so'ng ko'pincha undov belgisi qo'yilish, matnda so'z yoki jumla takroriga yo'l qo'ymaslik uchun u, bu, shu kabi so'zlardan foydalanish mahalla yoki ko'chalarga atab qo'yilgan nomlarni bosh harflar bilan yozish kabi ko'nikmasi hosil qilinadi. 1-sinfning 2-"Tabiat ne'matlari" bo'limi orqali o'quvchilarda tilshunoslikka oid, "H" va, "X" tovushining hosil bo'lish o'rni, ularni to'g'ri talaffuz qilish orqali bir-biridan farqlash, dialog, gaplarning ohangiga qarab tinish belgilarni qo'yish, ohangdosh so'zlar, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarni bosh harf bilan yozish kabi bilimlar shakllantiriladi. 2-sinfning 3-bo'limida, ya'ni "Tabiat ne'matlari" bo'limida so'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozish, odam, hayvon yoki narsalarga xos sifatlarni aniqlash uchun qanday? yoki qanaqa? so'rog'i berilishi, narsalarning nomini bildiruvchi so'zlarga nima? yoki nimalar? deb savol berilishi, harakatni ifodalovchi so'zlarga nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? kabi so'roqlar berilishi o'quvchilarga qoidalar va mashqlar orqali tushuntirib o'tilgan. 2-sinfning 4- "Sog' tanda-sog'lom aql" bo'limida gaplarni bog'lovchilar yordamida bog'lash, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash, so'z yasalishiga oid dastlabki tushunchalar amaliy tarzda o'rgatiladi. Yuqorida sanab o'tilgan ikkala sinf doirasidagi har uchala bo'lim singari boshqa bo'limlar ham tilshunoslikning ma'lum bir bilimlarini berishga qaratilgan bo'lib, yangi darslikda bu bilimlar o'quvchi o'zlashtirishi uchun juda oson va tushunarli qilib yoritilgan. Ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar - yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalash, kelajakda o'z sohasining mutaxassisi bo'lib yetishishlari uchun ta'lim berishning noodatiy va o'zgacha va eng muhimi samarali usullaridan foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda.

Lingvistik kompetensiyaga mutaxassislar tomonidan turli davrlarda turlicha ta'riflar berilgan. Ural Federal universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi T.A.Pirkova "Содержание и структура лингвистической компетенции" (Lingvistik kompetensiyaning mazmuni va tuzilishi) nomli maqolasida lingvistik kompetensiyaga berilgan bir qancha ta'riflarni keltirgan. Mahalliy fanda 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlarida A.L.Berdichevskiy nutqiy, lingvistik va madaniy-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish g'oyasini ilgari suradi. "Kommunikativ kompetensiyani o'zlashtirishning asosiy tarkibiy qismlari nutqiy, lingvistik va madaniy kompetensiyalardir" – deb ta'kidlaydi.²¹ U I.A.Zimnyadan keyin lingvistik kompetensiyani "til tizimi va uning chet tilidagi muloqotda ishlash qoidalarini bilish, ya'ni lingvistik kompetensiya ma'lum kommunikativ salohiyatga ega bo'lgan til vositalarining mavjudligi, tilni bilish" deb tushunadi. I.L.Beam qarashlari lingvistik kompetensiya va sotsiolingvistik jihatlarni o'z ichiga oladi va uni "lingvistik vositalarga ega bo'lish, matnni yaratish va tushunish jarayoni" deb ta'riflaydi. E.V.Tixomirova o'z tadqiqot doirasidagi dissertatsiyasida lingvistik kompetensiya chet tilidagi lingvistik shakllardan (fonologiya, morfologiya, lug'at, sintaksis) to'g'ri foydalanishda namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tgan. R.K.Minyar-Beloruhev lingvistik kompetensiyani "til tizimi va nutq faoliyati jarayonida lingvistik vositalardan

²¹ Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang'ich maktab» jurnali Toshkent. 2000- yil. 212 b.

foydalanish qoidalarini bilish" deb belgilashni taklif qiladi. Yevropa Kengashi a'zosi, britaniyalik tilshunos Van Ek 1990-yilda kommunikativ kompetensiyaning o'ziga xos modelini taklif qildi va uning asosiy tarkibiy qismlari orasida lingvistik kompetensiyani "tilning lug'atini o'zlashtirish va leksik birliklarni ma'noli so'zlarga birlashtirish qobiliyati" deb ta'kidladi. Shunday qilib, lingvistik kompetensiya deganda grammatik jihatdan to'g'ri shakl va sintaktik konstruksiyalarni qurish, shuningdek, nutqdagi semantik bo'laklarni tilning mavjud me'yorlariga muvofiq tashkil eta olish va ulardan qaysi ma'noda foydalanish qobiliyati tushuniladi. Lingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Lingvistik kompetensiya til faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar to'plamini amalda qo'llash qobiliyatiga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», T., 1998
2. O'zbekiston Respublikasining Milliy dasturi. Toshkent. 1998-yil.
3. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim . 2006-yil, 5- son . 48 b.
4. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim . 2006-yil, 5- son. 48 b.
5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya/ Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrirlar H.G'.Ne'matov, R.R.Sayfullayeva. –T.:Mumtoz so'z, 2008. -468 b.
6. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, 1989